

**SIROJIDDIN SAYYID SHE'RIYATI VA SHAXSIYATI TALQINI: N. JABBOROV
PORTRET-MAQOLALARI MISOLIDA****Quranbayeva Gulianbar Umirbek qizi,***Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti doktoranti*

0009-0007-0934-7990

guli8337@gmail.com**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18268494>

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotida yetuk ijodkor shaxsini yoritishda portret-maqola janrining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ijodiga bag'ishlangan adabiyotshunos N. Jabborovning "Ruhim xaritasi" dan "Dil fasligacha" va "Metaforaga boy she'riyat" nomli portret-maqolalari o'rganiladi. Ushbu maqolalarda shoir ijodining badiiy-falsafiy qatlamlari, uslubiy o'ziga xosliklari, mumtoz adabiyot bilan bog'liqligi hamda shaxsiyatining ma'naviy qiyofasi yoritilganligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqotda portret-maqolalar orqali ijodkor shaxsini yaxlit tasavvur etish imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: adabiy portret, portret-maqola, badiiy publitsistika, shoir shaxsiyati, poetik tafakkur, zamonaviy she'riyat.

Аннотация. В статье анализируется роль и значение жанра портретной статьи в раскрытии личности и творческой индивидуальности современного поэта. Объектом исследования являются портретные статьи литературоведа N. Jabborov, посвящённые творчеству народного поэта Узбекистана Sirojiddin Sayyid. В ходе исследования выявляются художественно-философские особенности поэзии поэта, его стилистическая самобытность, связь с классической литературной традицией и духовный облик личности. Делается вывод о том, что портретные статьи способствуют целостному осмыслению творческой и личностной эволюции поэта.

Ключевые слова: литературный портрет, портретная статья, художественная публицистика, личность поэта, поэтическое мышление, современная поэзия.

Annotation. This article examines the role and significance of the portrait-essay genre in representing the personality and creative identity of a modern poet. The study focuses on portrait essays by literary critic N. Jabborov devoted to the works of the People's Poet of Uzbekistan Sirojiddin Sayyid. The research reveals the philosophical depth, stylistic originality, links to classical literary traditions, and spiritual image of the poet. The article argues that portrait essays play an essential role in forming a holistic literary portrait of the creative individual.

Keywords: literary portrait, portrait essay, artistic journalism, poet's personality, poetic thinking, modern poetry.

Kirish. Bugungi kunda ham ko'zga ko'ringan ijodkorlarning faoliyati va shaxsiyatini yoritishga bag'ishlangan keng tadqiqotlar olib borilmoqda. Adabiy jarayonni faol kuzatish va asarlarni talqin qilish natijasida munaqqidlar tomonidan bir qator portret – maqolalar yaratilmoqda. Ushbu maqolalar orqali yetuk ijodkorlarning adabiy portretiga chizgilar berilmoqda. Adabiy portretga bag'ishlangan turli mualliflarning maqolalari majmuasi shoir portretini yaxlit holda tasavvur qilishga yordam beradi. Masalan, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid haqida adabiyotshunoslar N. Rahimjonov va N. Jabborovlar tomonidan yaratilgan maqolalar ijodkorning turli asarlariga atalgan bo'lsa

ham, ular bir butun holda portretni gavdalantiradi. Jumladan, N. Rahimjonovning “Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyati” kitobidagi “Dil manzillari (Sirojiddin Sayyid ijodiy portretiga chizgilar)”, N. Jabborovning “Zamon. Mezon. She‘riyat” kitobidagi “Ruhim xaritasi”dan “Dil fasli”gacha”, “Metaforaga boy she‘riyat” maqolalari Sirojiddin Sayyid adabiy portretining muayyan qismlarini yoritishga bag‘ishlangan. Adabiy portretni yaratishda muallif nutqi ham mavzu mohiyatini yoritishda muhim o‘rin tutadi. Ijodkorning o‘ziga nisbatan qo‘ygan talabi va faoliyati haqida bildirgan xolis fikri adabiy portretning haqqoniyligiga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda adabiyotshunoslik fanida keng qo‘llaniladigan bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez metodi orqali portret-maqolalarda ilgari surilgan fikrlar tizimli ravishda o‘rganildi va umumlashtirildi. Qiyosiy-tipologik metod yordamida Sirojiddin Sayyid ijodining mumtoz va zamonaviy adabiyot bilan aloqador jihatlari aniqlashtirildi. Germenevtik tahlil she‘riy matnlardagi badiiy-falsafiy mazmunni chuqur anglashga xizmat qildi. Shuningdek, tarixiy-adabiy metod asosida shoir ijodining rivojlanish bosqichlari va ularning adabiy jarayondagi o‘rni yoritildi. Ushbu metodlar majmui portret-maqola janrining ilmiy-estetik imkoniyatlarini aniqlashga imkon berdi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida ijodkor shaxsini yoritishga bag‘ishlangan portret-maqolalar muhim ilmiy manba sifatida e‘tirof etiladi. Bu borada N. Rahimjonovning “*Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyati*” asari muhim tadqiqotlardan biri bo‘lib, unda mustaqillik davri shoirlari ijodiga xos umumiy poetik tendensiyalar tahlil qilingan. Mazkur asardagi Sirojiddin Sayyid ijodiga bag‘ishlangan kuzatuvlar shoirning adabiy portretini yaratishda dastlabki ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Adabiyotshunos N. Jabborovning “*Zamon. Mezon. She‘riyat*” kitobidan o‘rin olgan portret-maqolalar esa shoir ijodini chuqur tahlil qilishi, badiiy tafakkur va shaxsiyat uyg‘unligini ochib berishi bilan ajralib turadi. Muallif shoirning poetik kamoloti, metaforik tafakkuri, mumtoz adabiyot bilan uzviy aloqalarini aniq misollar orqali asoslab beradi. Shuningdek, maqolalarda adabiy jarayon talablariga mos ravishda ijodkor shaxsiyatini yoritish masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan.

Bundan tashqari, Abdulla Oripov, Ozod Sharafiddinov, Aleksandr Faynberg singari adabiyot namoyandalarining fikrlari ham Sirojiddin Sayyid ijodining badiiy-estetik qiymatini belgilashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlar majmui shoir adabiy portretini yaratishda portret-maqola janrining ilmiy va badiiy imkoniyatlari keng ekanligini ko‘rsatadi.

Natijalar. Adabiyotshunos N. Jabborovning Sirojiddin Sayyid ijodiga bag‘ishlangan “Ruhim xaritasi” dan “Dil fasligacha” nomli maqolasida shoir ijodi uning ilk to‘plami chop etilgan vaqtdan maqola yozilgunga qadar bo‘lgan davrda yaratilgan bir nechta kitoblariga kiritilgan she‘rlar misolida tadqiq qilinadi. Munaqqid Sirojiddin Sayyid

faoliyati va shaxsiyatini yoritgan ekan, uni milliy she'riyatimizda o'z o'rniga ega bo'lgan ijodkor deya e'tirof etadi. Oллоh tomonidan ato etiladigan iste'dodning ijodda nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishini Sirojiddin Sayyid she'riyati misolida ochib beradi. Shuningdek, maqolaga muallif tomonidan ustoz Abdulla Oripovning Sirojiddin Sayyid haqida faxrlanib aytgan jumalari ham kiritiladi. Bu orqali munaqqid shoirning ustozlar e'tirofiga sazovor bo'lgan o'tkir qalam egasi, nafaqat ijodiy jihatdan barkamol shoir, balki sofdil va samimiy shaxs sifatidagi qiyofasini ham yoritadi. Tadqiqotda shoirning Vatanni madh etuvchi she'rlari bilan birga, ijodkorning o'z ulug' salaflariga ergashib aruz vaznida yaratgan asarlari ham tahlil qilinadi. Bu orqali muallif shoirning mumtoz adabiyot ilmidan ham boxabar ekanligini ko'rsatib beradi. Muallif Sirojiddin Sayyidning she'rlarini tahlilga tortar ekan, ularning mazmuniga singib ketgan teran falsafiy mushohadalar, boy mazmun va ta'sirchan poetik ifodalarni kashf etadi. Ayniqsa, shoirning Vatanni madh etuvchi boshqa hech qaysi ijodkorning asarlarida uchramaydigan betakror misralarini talqin qilish orqali munaqqid muallifning badiiy tafakkur olami qanchalar keng ekanligini ifodalaydi. Maqolada asosiy e'tibor shoir ijodining kamolotini ko'rsatishga qaratiladi. Bu haqda muallif shunday ta'kidlaydi: "Har qanday shoirning ijodiy kamolotini ko'rsatadigan bosh omil – she'rlarida teran hikmatlarning go'zal badiiyat bilan aks etishidir. Ijodning yuksalish pallasida fikr teranlashadi, "qaymoq bog'laydi", ifoda sayqallanadi, o'ziga xoslik yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Sirojiddin Sayyid she'rlarida ana shu kamolot alomatlari bo'y ko'rsatayotgani alohida tahsinga loyiqdir".[8:168] Muallif Sirojiddin Sayyid ijodining kamoloti haqida so'z yuritgan ekan, shoirning "Dil fasli" to'plamini uning ijodining kamolot bosqichiga oid de'ya ta'kidlaydi. Bu bilan munaqqid shoirning har bir yaratayotgan yangi asari uning ijodini yuksalish sari ko'tarayotganligini e'tirof etadi.

Adabiyotshunos N. Jabborovning "Metaforaga boy she'riyat" portret – maqolasi ham Sirojiddin Sayyid hayoti va ijodining ayrim o'ziga xos qirralarini aks ettirganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Maqolada munaqqid Sirojiddin Sayyid ijodini shoirning ichki olami va ma'naviy qiyofasini akslantirar ekan, unga yuksak baho beradi. Fikrining isboti sifatida ushbu ijodkor haqida taniqli adabiyot namyondalari Andrey Voznosenskiy, Aleksandr Faynberg, Ozod Sharafiddinovlarning aytgan bir qator samimiy va haqqoniy fikrlarni keltirib o'tadi. Muallif adabiyotni qismat deya qabul qilgan, o'z ijodiga katta mas'uliyat ila yondashgan ijodkorga o'z hurmatini izhor qiladi. Maqolada shoirning Vatanni, ezgulikni, ijodkorlik qismatini falsafiy yo'sinda ifodalagan asarlari keng talqin qilinadi. Shoir ijodidan o'rin olgan namunalarning barchasida ohorli tasvirlar, badiiy san'at vositalaridan o'rinli foydalanish xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bu xalqchil, sodda va samimiy she'rlarda fikri tiniq, beg'ubor va xoksor shoir qalamining izlari bevosita uning tiniq shaxsiyatiga chizgilar beradi. Shuningdek, muallif ijodkorning mumtoz adabiyot an'alariga amal qilib yozilgan g'azallari, muxammaslari va fardlarini ham talqin qiladi. Maqolada, asosan, Sirojiddin Sayyidning "Ochil, ey gulki, bo'ston vaqti

bo‘ldi” nomli to‘plamiga kirgan she‘rlari va shu kitobdagi “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” dostoni tadqiq qilinadi. Shoirning tarixdan ilhom olib yaratgan ijod namunalari, salafalariga ergashib, mumtoz janrlarda yozgan asarlari tahlili orqali munaqqid Sirojiddin Sayyid she‘riyatining ko‘lami, pog‘onasi, shoir shaxsiyatining, tafakkur olamining turfa qirralarini ochib beradi. Muallif ijodkorning she‘riyatiga baho berar ekan shunday yozadi: “Sirojiddin Sayyid inson va uning mohiyati, umr mazmuni singari falsafiy mavzularni ham go‘zal badiiy shaklda talqin qiladi. She‘rning badiiy quvvatini ta‘minlashda shoir original metaforalardan, ohorli tashbehlardan mahorat bilan foydalanadi”.[8:172] Ushbu ta‘rifdan muallifni Sirojiddin Sayyid ijodini talqin qilishga undagan sabablarni bilib olishimiz mumkin. Bu sabablardan biri, shubhasiz, munaqqidning adabiy jarayon talabini chuqur his qila olganidir.

Xulosa. Go‘zal asarlar yaratib, kitobxonlar qalbidan joy olayotgan yetuk shoirlarning shaxsiyati, uslubiy o‘ziga xosliklari, pinhon sifatleri o‘quvchi uchun hamisha sirli va qiziqarlidir. Bunday shaxslarni va ularning ijodini talqin qilish barobarida munaqqidlar adabiy muhitning nechog‘lik taraqqiy topayotganini ham aks ettiradilar. Ushbu maqolalar Sirojiddin Sayyid she‘riyatining asosiy mezonlarini, ijodkor uslubi va shaxsiyatiga xos individual xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirganligi, umumlashtirganligi bilan portret – maqola janri namunasi sifatida alohida qimmatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
2. Сирожиддин Саййид. Асарлар. I жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2018.
3. Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2018.
4. Сирожиддин Саййид. Асарлар. III жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2018.
5. Сирожиддин Саййид. Асарлар. IV жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2019.
6. Курбонова С. Ёзувчи публицистикасининг тараққиёт тамойиллари. –Тошкент. “Муҳаррир”. 2012.
7. Тоғаев О. Ўзбек бадий публицистикаси (назария ва маҳорат масалалари). –Тошкент. Фан. 1973.
8. Jabborov N. Zamon. Mezon. She‘riyat. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2015. – B. 163.